

KLINIK ATAMALARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY- INOVATSION USULLAR

Ashurbayeva Ruqiya Qahhorovna

*Buxoro davlat tibbiyot instituti, o'zbek tili va adabiyoti,
rus va ingliz tillari kafedrası dotsenti*

*E-mail: ashurbayeva.ruqiya@bsmi.uz
<https://orcid.org/0009-0002-5342-5275>*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot ta'limida muhim ahamiyataga ega bo'lgan lotin tilining klinik atamalarda aks etishini zamonaviy usullar yordamida ta'lim berish aspektlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tavsiya qilingan usullarning samarasi va ta'limda qo'llashning afzalliklari yuzasidan mulohazalar o'rin olgan bo'lib, bunda geymifikatsiya ahamiyati haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Klinika, atama, innovatsiya, usul, shifokor, metod, tibbiyot, ta'lim, soha, platforma, geymifikatsiya, tibbiy,

Mavzuning dolzarbligi: Tibbiy ta'lim sifatli tashkil qilish, kompetensiyaviy va kreativ yondashuvni joriy etish, real tibbiyot muhitida amaliy kasbiy-ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradigan klinik media texnologiyalarni tatbiq etish, tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-madaniy, metodik kasbiy kompetensiyalar modelini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e'tibor kundan kunga oshib bormoqda.[1] Bu borada qilinayotgan tadqiqotlar raqobatbardosh, fundamental va klinik bilimlarga ega kadrlarni yetishtirib beradi. Bizga ma'lumki, jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida tibbiyot ta'limida klinik fanlarga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish, raqamli texnologiyalar transformatsiyasiga asoslangan uzluksiz tibbiyot ta'limi texnologiyalarini takomillashtirish, global salomatlik dasturlari (Horizon health), tadqiqotlarga yo'naltirilgan ta'lim asosidagi tibbiy klasterlarni (Health Cluster) yaratish bo'yicha juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va o'zining ijobiy natijalarni bermoqda.

Mamlakatimizda 2020-2030 yillarda tibbiyot sohasini tubdan rivojlantirish, tibbiyot sohasida xalqaro standartlarni joriy etish, kredit-modul tizimini joriy etish orqali tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish, tibbiyot ta'lim, fan, amaliyot va innovatsiyalar sohasidagi ijobiy xalqaro tajribalarni amalda qo'llash borasida samarali ishlar olib borilmoqda. [2] Shuningdek, tibbiyot ta'limida ta'lim xizmatlarini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim berish imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiyot tashkilotlari ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash, amaliyot va

tibbiy ta'limga asoslangan dual ta'lim modelini joriy etish, bu borada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining akademik va innovatsion salohiyatini oshirish borasida ustuvor vazifalar belgilangan.

Tadqiqot maqsadi. O'z navbatida bu uzluksiz tibbiy ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8 - oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28- yanvardagi PF60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonlari 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-son "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil 25 maydagi PQ-5124-son "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [3] Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshiriladi. O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan gamifikatsiya tadqiqotlari. O'zbekiston ta'limda geymifikatsiyani joriy qilish borasida quyidagi tadqiqotchilar tadqiqot ishlarini olib borgan: Islombek Raxmatov, "O'yin texnologiyalari yordamida chet tilini o'qitishni innovatsiyalash: gamifikatsiya tamoyillari tahlili", Safina Khasanova va Madina Mustayeva, "Geymifikatsiya - oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirish vositasi sifatida", Fazilatxon Qurbonova "Maktab o'quvchilarining fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishning psixologik jihatlari", Nazokat Xaitova "Boshlang'ich ta'limni geymifikatsiya yordamida darslarni tashkil etish yordamida samaradorlikni oshirish usullari", Shohista Xasanova "Gamifikatsiya vositasida o'rta ta'lim o'quvchilarining ingliz tilida tanqidiy fikrlashini takomillashtirish", Asadbek Yusupov "Xorijiy tillarni o'rgatishda gamifikatsiya: o'quv jarayonida raqamli o'yinlardan foydalanish", Dilfuza Shavkiyeva esa "Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga geymifikatsiya yordamida ingliz tilini o'rgatish metodikasi" mavzusida dissertatsiya ishini yozgan.

Tadqiqot material va usullari. Klinik atamalarni o'qitishda zamonaviy- inovatsion usullarning bir qancha usullari bor:

1. *Interaktiv ta'lim platformalari.* Zamonaviy texnologiyalar yordamida onlayn interaktiv platformalar (masalan, Moodle, Blackboard) orqali o'qituvchilar va talabalar o'rtasida interaktiv aloqani o'rnatish mumkin. Bunday platformalar orqali klinik atamalarni video, audiolar va boshqa multimediya materiallari yordamida o'rganish mumkin. Bu o'quvchilarni yanada faollashtiradi.[4]

2. *Simulyatsiya va virtual reallik (VR).* Klinik atamalarni o'qitishda VR va simulyatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali talabalar real sharoitlarda sog'liqni saqlash amaliyotlarini

o'rganishadi. Masalan, virtual reallik orqali turli klinik holatlarni simulyatsiya qilib, talabalar o'z bilimlarini amaliyotda sinashlari mumkin.

3. *O'yinlashgan ta'lim (Gamification)*. O'yinlashgan ta'lim usullari klinik atamalarini o'rganishda motivatsiya yaratish va o'quv jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradi. Klinik atamalarini o'z ichiga olgan interaktiv o'yinlar va viktorinalar orqali talabalar o'z bilimlarini sinashadi va o'rganish jarayoniga qiziqish uyg'otiladi.

Yuqorida ta'kidlangan usul va vositalardan geymifikatsiya usuli haqida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Geymifikatsiya atamasiasida qanday ma'noni anglatadi?

Geymifikatsiya (inglizcha: gamification, ruscha: игрофикация, геймизация) – bu foydalanuvchilar va iste'molchilarni jalb qilish, ularning biznes vazifalarini hal etishga, mahsulot va xizmatlardan foydalanishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida amaliy dasturiy ta'minot va veb-saytlarda kompyuter o'yinlariga xos texnika va yondashuvlardan foydalanishdir.

Geymifikatsiya zamonaviy masofaviy elektron ta'lim rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2010-yillarning boshlarida u axborot texnologiyalarining tashkilotlar uchun muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralgan. Geymifikatsiya – bu o'yin elementlarini ijtimoiy faoliyatning boshqa turlariga tatbiq etilishi[9]

Tadqiqot natijalari. Geymifikatsiyalarning afzalliklari juda ko'p, jumladan: - moslashuvchanlik; - qulay foydalanish; - sog'lom raqobat mihiti: - tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini joriy etish va kerakli natijalarga erishishdir. Ta'lim geymifikatsiyasi ta'limiy maqsadga erishish yoki qo'yilgan masalani yechishga qaratilgan geym-o'yinlar ketma-ketligini bajarish borasida ijrochiga tushunarli va aniq ko'rsatmalar berish nazarda tutiladi. Demak, oliy ta'lim jarayonida talaba tomonidan o'quv materialini samarali o'zlashtirish uchun shart-sharoit va imkoniyatlarni kengaytirishda o'qituvchi ta'lim geymifikatsiyasidan (nazariy) va amaliy operatsiyalarning ketma-ketlik tartibini o'yinlar orqali amalga oshiradi. Geymlar mustaqil o'qitish dasturi yoki, boshqa o'qitish dasturining qismi bo'lishi mumkin.

Klinik atamalarini o'rgatishda geymifikatsiyadan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini beradi. Bu usuldan foydalanishda tibiy ta'lim muassalarida ta'lim olayotgan talabalar tanlab olindi. Talabalarga dastlab klinik atamalar tansihtirildi. So'ngra, berilgan bilimlar o'zlashtirish ko'rsatkichi teshirildi. So'ngra, geymifikatsiyadan foydalanilgan holda klinik atamalar o'rgatildi. Geymifikatsiyad usulida ishtirok etishni bildirgan guruh talabalar 100 % ni tasgkil qildi. An'anaviy usul va geymifikatsiya usulian foydalanilgan ko'rsatkichlar quyidagi natijani ko'rsatdi.

An'anaviy usulda klinik atamalarining o'zlashtirish ko'rsatkichi: 60%

Geymifikatsiya usulda klinik atamalarining o'zlashtirish ko'rsatkichi: 90%

Shuningdek, tibbiy ta’lim muassasida ta’lim olayotgan talabalarnig geymifikatsiya orqali klinik atamalarni o‘rganish samaradorligi yuzasidan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijasi quyidagi ko‘rsatkichni ko‘rsatdi.



Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tibbiy ta’lim muassalarida klinikatamalarini o‘ragatishda geymifikatsiyaning ahamiyati katta. Kiritilgan o‘yin elementlariga qarab, geymifikatsiya o‘ziga xos afzalliklarni beradi, ularning ta’siri va ko‘lami o‘quv sharoitida qaysi elementlardan foydalanishni hal qilish uchun ma’lum bo‘lishi kerak. O‘yin jarayonlarini o‘quv jarayoniga kiritish nafaqat o‘zlarini ko‘proq jalb qilgan o‘quvchilarga yordam beradi, balki o‘qituvchilarga ham yangi o‘qitish usullarini o‘zlashtirishlariga yordam beradi va talabalarning klinik atamalar yuzasidan bilimlarini uzoq muddatga saqlanib qolishiga imkon beradi. Umuman olgnda, bu kabi usullar talabalarga o‘z bilimlarini mustahkamlash, yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va amaliy tajriba orttirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. 2017 y, 104 bet. O‘zbekiston matbuot vaaxborot agentligining —T.: O‘zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y. 488 bet. O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining —T.: O‘zbekistonnashriyot matbaa ijodiy uyi.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpoetamiz. 2016 y. 56 bet. O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining —T.: O‘zbekistonnashriyot matbaa ijodiy uyi.

4. Ashurova D.T., Tursunova O.A., Axrarova N.A., Mambetkarimov G.A Bolalar kasalliklaripropedevtikasi. ToshPTI. Darslik .T.: 2018 yil.

5.Клинико-функциональные особенности новорожденных: учебное пособие длястудентов медитсинских вузов / сост.: Лежнина И. В., Подлевских Т. С., Токарев А. Н.: -Киров: Кировская государственная медитсинская академия. 2010. – 82 с.

6.Пропедевтика детских болезней: учебник для студентов педиатрических факультетов

медитсинских вузов. Ростов н/ Д.: Феникс. 2011. — 573 с 7.

7. Пропедевтика детских болезней с уходом за детьми / Т.В.Капитан — 3- е издание.доп. — М.: МЕДпресс-информ, 2006. — 704 с. 8.

8. Пропедевтика детских болезней. Мазурин А.В., Воронсов И.М., 2 ое изданиеСанкт. П.: 2009.

9. I.H AJAYI, N.A.LAHAD, N.AHMAD ,A.F.YOSUF , "A PROPESED CONCEPTUAL MODEL FOR FLIPPED LEARNING ".JJournal of Thereotical &Applied information technology